

Ekskluziv huquqlar berilgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarni ustun mavqega ega deb e‘tirof etish ro‘yxati

T/r	Ekskluziv huquq berilgan xo‘jalik yurituvchi subyekt nomi	T/r	Ekskluziv huquq tavsifi (faoliyat turlari nomi)	Ekskluziv huquq berilishiga asos bo‘lgan normativ-huquqiy hujjat
1.	“Qishloqqurilishloyiha” DM	1.	Qishloq joylarda qishloqlar, ovullar va shahar posyolkalarining bosh rejalarini, qishloqlar (ovullar) fuqarolar yig‘inlari hududlarini arxitektura-rejalashtirish jihatidan tashkil etish loyihalarini va ular tarkibida batafsil rejalashtirish loyihalarini hamda ushbu batafsil rejalashtirish loyihalari uchun topogeodeziya xaritalarini ishlab chiqish;	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagi PQ-3502-son qarori 4-bandi 4. Quyidagilar: ... «Qishloqqurilishloyiha» MChJ — qishloq joylarda qishloqlar, ovullar va shahar posyolkalarining bosh rejalarini, qishloqlar (ovullar) fuqarolar yig‘inlari hududlarini arxitektura-rejalashtirish jihatidan tashkil etish loyihalarini va ular tarkibida batafsil rejalashtirish loyihalarini hamda ushbu batafsil rejalashtirish loyihalari uchun topogeodeziya xaritalarini ishlab chiquvchi etib belgilansin.
		2.	“Yangi O‘zbekiston” massivlarida qurish loyihalarini ishlab chiqish;	
		3.	Qishloq aholi punktlarini rivojlantirish tarhlari loyihalari ishlab chiqish, shuningdek, buning uchun topogeodeziya va muhandislik-geologiya qidiruv ishlari bajarish.	
2.	“Toshuyjoy LITI” AJ	4.	“Yangi O‘zbekiston” massivlarida qurish loyihalarini ishlab chiqish.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-dekabrda PF-32-son Farmoni 3.b-bandi. 3. «Yangi O‘zbekiston» massivlarida tashqi muhandislik-transport kommunikatsiyalari hamda ijtimoiy soha obyektlarini qurishda quyidagilar: ... b) massivlarni qurish loyihalarini ishlab chiqish bo‘yicha bosh loyihachi etib «Qishloqqurilishloyiha» MCHJ, «O‘zshaharsozlikLITI» DUK, «ToshuyjoyLITI» AJ va «ToshkentboshplanLITI» DUK belgilansin;

3.	“O‘zGASHKLITI” MChJ	5.	Topografiya-geodeziya ishlarini va shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish uchun muhandislik-geologiya qidiruv ishlarni bajarish;	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagi PQ-3502-sonli qarori 4-bandi. 4. Quyidagilar: ... «O‘zGASHKLITI» DUK — topografiya-geodeziya ishlarini va shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish uchun muhandislik-geologiya qidiruvlarini ijro etuvchi etib belgilansin.
		6.	Foydalanishdagi yer uchastkasining 1:500 masshtabdan 1:2000 masshtabgacha topografik xaritasini tayyorlash;	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi 543-sonli qarori bilan tasdiqlangan Yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma'muriy reglamentining 32 ¹⁷ -bandi.
		7.	Shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish uchun kompleks muhandislik-texnik izlanishlar o‘tkazish.	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 5-yanvardagi 3-son qarori 4-bandi . 4. Quyidagilar: ... «O‘zGASHKLITI» davlat unitar korxonasining loyiha-qidiruv tashkiloti — shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish uchun kompleks muhandislik-texnik izlanishlar o‘tkazish (muhandislik-geologik qidiruvlar o‘tkazish, topografik xaritalar va rejalarini tuzish) bo‘yicha ishlarni ijro etuvchi etib belgilansin.
4.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri qurilish sohasida davlat xaridlarini tashkil etish konsalting markazlari DM	8.	Budjet tizimi budjetlari hisobidan moliyalashtiriladigan qurilish obyektlari, jumladan “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimidagi qurilish obyektlari, alohida toifadagi qurilish obyektlari (yopiq tenderlar) va xalqaro moliya institutlari/ xorijiy hukumatlar moliya tashkilotlari ishtirokidagi loyihalar	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-avgustdagi PF-151-son Farmoni. 2-ilova 13-bandi Konsalting markazlari budjet tizimi budjetlari hisobidan moliyalashtiriladigan qurilish

			doirasida davlat xaridlariga oid tender hujjatlarini tayyorlash.	<i>obyektlari, jumladan “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimidagi qurilish obyektlari, alohida toifadagi qurilish obyektlari (yopiq tenderlar) va xalqaro moliya institutlari / xorijiy hukumatlar moliya tashkilotlari ishtirokidagi loyihalar doirasida davlat xaridlariga oid tender hujjatlarini tayyorlash bo'yicha vakolatli davlat muassasalari etib belgilanadi.</i>
5.	“Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish respublika markazi” DM	9.	Davlat budjeti va unga tenglashtirilgan manbalar, davlat tashkilotlari va nodavlat tashkilotlar kafolatlari ostida olingan tashqi investitsiya mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan ishlarning loyiha hujjatlari ko'rib chiqish (ekspertizadan o'tkazish);	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrda 579-sonli qarori 1-ilova 22-band. 22. Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi xavf-xatar toifalari bo'yicha quyidagi tartibda ko'rib chiqiladi: III toifa obyektlarning loyiha hujjatlari — buyurtmachi tomonidan axborot tizimi orqali yuborilgan murojaat «Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish respublika markazi» DMga kelib tushadi. Mazkur murojaatlar «Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish respublika markazi» DM yoki uning hududiy boshqarmalari tomonidan ko'rib chiqiladi; 5000 va undan ko'p insonlar tashrif buyuradigan obyektlar (jumladan, yirik savdo majmualari) «Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish respublika markazi» DM yoki uning hududiy boshqarmalari tomonidan ko'rib chiqiladi; IV toifa obyektlar — loyiha hujjatlari faqat «Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish respublika markazi» DM tomonidan ko'rib chiqiladi.
		10.	Xavf-xatar toifalari bo'yicha III toifa va IV toifa qurilish obyektlari loyiha hujjatlari ko'rib chiqish (ekspertizadan o'tkazish);	
		11.	5000 va undan ko'p insonlar tashrif buyuradigan qurilish obyektlari loyiha hujjatlari ko'rib chiqish (ekspertizadan o'tkazish);	
		12.	Investitsiyaviy va infratuzilmaviy loyihalar bo'yicha qiymati BHMning 50 ming baravaridan kam bo'lgan loyihalarni ekspertizadan o'tkazish.	
6.	"TO`PALANG HPD HOLDING" MChJ	13.	“O'zbekgidroenergo” AJ obyektlarini qurish va modernizatsiya qilish.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-maydagi PQ-2972-son qarori 7-band

				7. Quyidagilar: ... xalqaro moliya tashkilotlari va donor-mamlakatlar tartiblariga muvofiq amalga oshirilayotgan loyihalar bundan mustasno bo'lgan holda, «O'zbekgidroenergo» AJ obyektlarini qurish va modernizatsiya qilish bo'yicha «To'polangsuvGESqurilish» MCHJga bosh pudrat tashkiloti vazifasi yuklansin.
7.	“Raqamli transformatsiya markazi” MChJ	14.	Budjet va korporativ buyurtmachilar rahbarlari xarid qilinishi nazarda tutilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni birinchi navbatda jamiyatning new.cooperation.uz portalida ro'yxatdan o'tgan mahalliy ishlab chiqaruvchilardan xarid qilish bo'yicha portal xizmatlarini ko'rsatish, shuningdek zarur bo'lgan tovarlar ushbu portalida mavjud bo'lmagan taqdirda ularni boshqa elektron portallardan xarid qilish uchun ma'lumotnoma berish.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-avgustdagi “Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-4812-son qarori 4-bandi 4. 2020-yil 1-oktyabrdan shunday tartib kiritilsinki, unga muvofiq: byudjet va korporativ buyurtmachilar rahbarlari xarid qilinishi nazarda tutilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni birinchi navbatda new.cooperation.uz portalida ro'yxatdan o'tgan mahalliy ishlab chiqaruvchilardan xarid qilish imkoniyatini majburiy tartibda o'rganadi. Bunda, davlat xaridlari uchun zarur bo'lgan tovarlar new.cooperation.uz portalida mavjud bo'lmagan taqdirdagina portal ma'lumotnomasi asosida ularni boshqa elektron portallardan xarid qilishga ruxsat etiladi;
8.	“Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish respublika markazi” DM	15.	Davlat xaridlari subyektlariga davlat xaridlarining elektron tizimlarida xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha “Shaffof-qurilish” axborot tizimi operatori xizmatlarini ko'rsatish.	
9.	“SMART MARKETPLACE” AJ	16.	Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlarining yagona elektron platformasi (oilakredit.uz)da ajratiladigan kreditlar hisobidan tovarlarni	

			(ishlarni, xizmatlarni) marketpleys tizimi (smart-market.uz elektron savdo maydonchasi) orqali sotish hamda sotib olish bo'yicha axborot xizmatlarni ko'rsatish.	
10.	“Davlat axborot tizimlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha yagona integrator –“UZINFOCOM” MChJ	17.	“Raqamli sog'liqni saqlash islohotlarini qo'llab-quvvatlash” loyihasi doirasida Raqamli sog'liqni saqlash platformasi operatori xizmatini ko'rsatish, mazkur platformani yaratish, joriy etish, texnik qo'llab-quvvatlash va axborot xavfsizligini ta'minlash; Sog'liqni saqlash sohasida amalga oshirilayotgan axborot tizimlarini rivojlantirish va xorijiy moliya tashkilotlari tomonidan moliyalashtiriladigan loyihalarning texnik-iqtisodiy parametrlari, konsepsiyalari, shuningdek, boshqa loyiha va loyihaoldi hujjatlarini ishlab chiqish.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-dekabrda PQ-415-son qarori 1, 6-bandlari <i>1. Sog'liqni saqlash vazirligi va Raqamli texnologiyalar vazirligining quyidagi takliflariga rozilik berilsin:</i> <i>b) tugatilayotgan «IT-Med» davlat muassasasining vazifa va funksiyalarini «Davlat axborot tizimlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha yagona integrator — «UZINFOCOM» MCHJ (keyingi o'rinlarda — Yagona integrator) zimmasiga yuklash;</i> <i>6. Loyiha doirasida:</i> operator hamda uni yaratish, joriy etish, texnik qo'llab-quvvatlash va axborot xavfsizligini ta'minlashga mas'ul etib — Yagona integrator etib belgilangan
		18.	AGTKSh orqali sotiladigan siqilgan gaz sarfi hisobini bevosita gaz tarqatish ustunlaridagi (dispenserlar) ma'lumotlarni real vaqt rejimida to'plash va yuritish imkonini beruvchi Davlat axborot tizimlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 6-iyuldagi 387-sonli qarori 1-bandi <i>1. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq 2024-yil 1-sentyabrdan boshlab neft, gaz (shu jumladan, siqilgan tabiiy va suyultirilgan uglevodorod gazini) va gaz kondensatini qazib olish, qayta ishlash hamda realizatsiya qilish uchun litsenziya olishda hamda belgilangan texnologik jarayonlar va texnologik uskunalarning holati texnik jihatdan tartibga solish</i>

				sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligi to'g'risidagi xulosa olishda talabgorlarga: ... AGTKSH orqali sotiladigan siqilgan gaz sarfi hisobini bevosita gaz tarqatish ustunlaridagi (dispenserlar) ma'lumotlarni real vaqt rejimida to'plash va yuritish imkonini beruvchi Davlat axborot tizimlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha yagona integrator «UZINFOCOM» MCHJ tomonidan ishlab chiqilgan tizim o'rnatilganligini tasdiqlovchi hujjat;
11.	“UNICON-SOFT” MChJ	19.	“edo.ijro.uz” va “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi operatori xizmatlarini ko'rsatish;	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi orqali qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror, farmoyish va topshiriqlari ijrosini tashkil etish tartibi to'g'risidagi vaqtinchalik nizomning 3-bandi. 3. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi: operator — «Ijro.gov.uz» tizimini davlat organlari va tashkilotlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, xo'jalik birlashmalari faoliyatiga joriy qilish uchun javobgar bo'lgan, shuningdek, uning uzluksiz ishlashi va axborot xavfsizligini ta'minlovchi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi qoshidagi «UNICON.UZ» fan-texnika va marketing tadqiqotlari markazi» davlat unitar korxonasi ta'sischiligidagi «UNICON-SOFT» mas'uliyati cheklangan jamiyati;

		20.	Yuridik xizmat ko'rsatish markazlari tomonidan yuridik xizmat ko'rsatish belgilanayotgan tashkilotlarni "E-huquqshunos" elektron tizimiga ulash, tizim ma'lumotlarni saqlash va ulardan xavfsiz foydalanish bo'yicha xizmatlarni ko'rsatish.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-martdagi PQ-173-son qarori 5-bandi, 2-ilova 2-bandi. 5. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Adliya vazirligi hamda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tizimidagi «UNICON-SOFT» MCHJ takliflariga asosan «E-huquqshunos» elektron tizimini Markazlar va ular yuridik xizmat ko'rsatadigan davlat organlari va tashkilotlari tuman (shahar) bo'linmalari faoliyatiga joriy qilishda «E-huquqshunos» elektron tizimidagi ma'lumotlarni saqlash va ulardan xavfsiz foydalanish hamda tizimning yuqori tezlikda ishlashini ta'minlash maqsadida «UNICON-SOFT» MCHJni tegishli server va boshqa zarur qurilmalar bilan ta'minlab borsin.
12.	"O'zbekekspertiza" AJ	21.	Mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlarni aniqlash va ularni sertifikatlash.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 28-oktabrdagi 712-sonli qarori bilan tasdiqlangan Mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlarni aniqlash tartibi to'g'risida nizomning 2-bandi
13.	"Orol artemiya sanoat" DM	22.	Orol dengizi akvatoriyasida artemiya sistalarini yig'ish va yetkazib berish.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-maydagi 327-sonli qarori 6-bandi.

				6. Quyidagilarga: ... b) Muassasaga: <i>Orol dengizi akvatoriyasida artemiya sistalarini xalqaro standartlarga muvofiq yig'ish artemiya sistalarini elektron birja savdolari g'oliblariga yetkazib berish ishlarini tashkil qilish;</i>
14.	“Gidroloyiha” AJ	23.	“O‘zbekgidroenergo” AJning investitsiya loyihalari bo‘yicha loyiha oldi va loyiha hujjatlarini ishlab chiqish.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-maydagi PQ-2972-son qarori 7-bandi 7. Quyidagilar: «O‘zbekgidroenergo» AJning investitsiya loyihalari bo‘yicha loyiha oldi va loyiha hujjatlarini ishlab chiqish bo‘yicha «Gidroloyiha» AJ bosh loyiha tashkiloti;
15.	“O‘zqurilishmaterialLITI” MChJ	24.	Ishlab chiqariladigan qurilish materiallari va buyumlarning barcha turlarini sertifikatlashtirish.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20 fevraldagi PQ-4198-sonli qarori 9-bandi 9. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, «O‘zqurilishmateriallari» AJ va qurilish materiallari sanoati korxonalarining «QurilishmateriallariLITI» MCHJ ixtisoslashtirilgan loyiha ilmiy-tadqiqot institutini «O‘zsanoatqurilishmateriallari» uyushmasi tarkibiga kiruvchi «O‘zqurilishmaterialLITI» MCHJ ilmiy-tadqiqot va injiniring markazi etib qayta nomlash to‘g‘risidagi taklifi qabul qilinsin, quyidagilar markazning asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari etib belgilansin: ...

				<i>ishlab chiqariladigan qurilish materiallari va buyumlarning barcha turlarini sertifikatlashtirish;</i>
16.	“Qishloq xo‘jaligi texnikasi va texnologiyalarini sertifikatlash va sinash markazi” DM	25.	Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya texnikalari, ularning agregatlari va butlovchi qismlarini sertifikatlash va tegishli sinovdan o‘tkazish;	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 1-avgustdagi 214-sonli qarori 2-ilova 1-bandi. <i>1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligi texnikasi va texnologiyalarini sertifikatlash va sinash markazi (keyingi o‘rinlarda Markaz deb ataladi) o‘tkazadigan sinov turlarini, sinov o‘tkazish rejalarini shakllantirish qoidalarini, mahsulotlarni sinash va ularni iste’molchilarga yetkazib berish jarayonida sinovdan o‘tkazilgan mahsulot holatining amaldagi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini nazorat qilish tartibini belgilaydi.</i>
		26.	Qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirishda resurs tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni sinovdan o‘tkazish.	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 15-dekabrda 785-son qarori 2-bandi <i>2. Markaz hududiy filiallarining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:</i> ... <i>qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirishda resurs tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni sinovdan o‘tkazish;</i>
17.	“Zarur amaliyotlar markazi” DM	27.	Dori vositasini ishlab chiqarish sharoitlarining “Zarur ishlab chiqarish amaliyoti (GMP)” talablariga muvofiqligi yuzasidan farmatsevtik inspeksiya o‘tkazish.	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-martdagi “Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani davlat ro‘yxatidan o‘tkazish hamda ro‘yxatdan o‘tkazilganlik guvohnomasi

				berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 213-son qarori ilova 19-"Z"-bandi <i>19. Ro'yxatdan o'tkazish Markaz tomonidan ushbu Nizomga</i> <i>1-ilovada ko'rsatilgan muddatlarda quyidagi tartibda amalga oshiriladi:</i> ... <i>z) «Zarur amaliyotlar markazi» davlat unitar korxonasi:</i> <i>dori vositalari ishlab chiqaruvchi korxonalarda joyiga chiqqan holda, joyiga chiqishning imkoni bo'lmagan taqdirda masofadan (onlayn) dori vositasini ishlab chiqarish sharoitlarining «Zarur ishlab chiqarish amaliyoti (GMP)» talablariga muvofiqligi yuzasidan farmatsevtik inspeksiyalarni olib boradi;</i>
18.	“Yashilloyiha” loyihalash instituti” DM	28.	Yashil hududlar va loyihalar bo'yicha ishlarni amalga oshirish, shu jumladan “Mening bog'im” loyihalari, “yashil bog'lar”, “yashil jamoat parklari” va “yashil belbog”larni tashkil etishda loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 26-martdagi 156-son qarori ilova 7-bandi <i>6. “Mening bog'im” loyihalari bo'yicha:</i> <i>“Yashilloyiha” loyihalash instituti loyihachi hisoblanadi;</i>
19.	“Turistlarga xizmat ko'rsatish markazi” DUK	29.	Davlat budjeti va ustav kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxs, ustav kapitalining 50 foizi va undan ortig'i ustav kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxsga tegishli bo'lgan yuridik shaxs mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan barcha turdagi xorijda o'tkaziladigan sport tadbirlariga transport (avia,	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-apreldagi PQ-5054-son qarori, 5¹-bandi

			temiryo'l, avto va boshqalar) uchun chiptalarni xarid qilish hamda joylashtirish vositalari bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatish (chiptalarni va joylarni band qilish, sotib olish va yetkazib berish, boshqalar).	
20.	“Turizm xizmatlarini sertifikatlash markazi” DUK	30.	Joylashtirish vositalarini, tog' chang'isi trassalarini, plyajlarni o'z ichiga olgan turistik industriya obyektlarini tasniflash va ularga toifalar berish.	O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyuldagi “Turizm to'g'risida”gi O'RQ-549-son Qonuni Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 7-sentabrda 550-son qarori bilan tasdiqlangan Toifasi (yulduz) bo'lmagan joylashtirish vositalari uch va undan yuqori toifa (yulduz) olganda muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish bo'yicha xarajatlarni Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan qoplab berish tartibi to'g'risidagi vaqtinchalik nizomning 2-bandi
21.	“O'zagrosug'urta” AJ	31.	Sudyalarning hayoti va sog'lig'ini davlat tomonidan majburiy sug'urta qilish.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 27-oktabrdagi 879-son qarori 2-bandi <i>2. Belgilansinki: sudyalarning hayoti va sog'lig'ini davlat tomonidan majburiy sug'urta qilish «O'zagrosug'urta» aksiyadorlik jamiyati tomonidan amalga oshiriladi; ushbu qaror 2019-yil 1-yanvardan e'tiboran kuchga kiradi.</i>
22.	“Sharq“ nashriyot-matbaa AJ	32.	Xizmat guvohnomalarining blankalari va muqovalari tayyorlash.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 5-yanvardagi 2-son qarori 3-bandi
23.	“O'zbek geologiya qidiruv” AJ	33.	Foydali qazilmalarning kompleks geologiya-qidiruv ishlari (xizmatlari)ni amalga oshirish.	

24.	“O‘zbekgeofizika” AJ	34.	Uglevodorod xom ashyosining kompleks geologiya-qidiruv va seysmoqidiruv ishlari (xizmatlari)ni amalga oshirish.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi PF-116-son Farmoni 3-bandi
25.	“Kitob geologiya tabiat milliy bog‘i” DM	35.	Kompleks geologik tadqiqotlar va stratigrafiya ishlari (xizmatlari)ni amalga oshirish.	
26.	“Yer qa‘ridan foydalanish markazi” DM	36.	Geologik ma‘lumotlar fondi, foydali qazilmalar balansi, kon va istiqbolli maydonlar kadastrı tematik ishlari (xizmatlari), geologik loyihalar ekspertizasi ishlari (xizmatlari)ni amalga oshirish.	
27.	“Soliq-servis” DUK	37.	Chet davlat fuqarolariga ular tomonidan O‘zbekiston hududidagi chakana savdo bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektlaridan ayrim turdagi tovarlarni sotib olishda to‘langan QQS summasini qisman qaytarish (“tax free”) tizimi operatori xizmatini ko‘rsatish;	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 8-noyabrdagi 653-sonli qarori 2-bandi <i>2. O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi, Moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi va Davlat bojxona qo‘mitasining:</i> <i>«tax free» tizimi operatori sifatida Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi «Soliq Servis» davlat unitar korxonasini (keyingi o‘rinlarda — Operator) belgilash;</i> <i>chet davlat fuqarolariga qaytariladigan QQS summasini hisobga olish va uni qaytarish soliq organlarining maxsus mobil ilovasi (keyingi o‘rinlarda — mobil ilova) orqali amalga oshirilishi to‘g‘risidagi takliflariga rozilik berilsin.</i>
28.	“Yangi texnologiyalar” ilmiy-axborot markazi DUK	38.	Texnik xizmat ko‘rsatish markazlariga fiskal modullarni taqdim etish va operator xizmatlarini ko‘rsatish.	Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-noyabrdagi 943-son qarori bilan tasdiqlangan Aholi bilan pulli hisob-kitoblarni amalga oshirishda onlayn nazorat-kassa mashinalari va virtual kassa tizimini qo‘llash tartibi to‘g‘risidagi nızmning 51-bandi

				51. Fiskal modullar TXKMning arizasi asosida operator tomonidan beriladi.
29.	“CRPT TURON” MChJ	39.	“Asl belgisi” mahsulotlarni markirovkalash va kuzatib borish milliy axborot tizimi operatori xizmatlarini ko‘rsatish.	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-noyabrdagi 737-son qarori 9, 10-bandlar
		40.	Majburiy markirovkalanadigan mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilar va import qiluvchilarga markirovka kodlarini taqdim etish.	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 833-son qarori 2-bandi; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-noyabrdagi 631-son qarori 1-bandi 1. Quyidagilar: a) Vazirlar Mahkamasining “Ayrim turdagi mahsulotlarni majburiy raqamli markirovkalash tizimini joriy etish to‘g‘risida” 2020-yil 20-noyabrdagi 737-son qarori bilan “Asl belgisi” mahsulotlarni markirovkalash va kuzatib borish milliy axborot tizimi (keyingi o‘rinlarda — “Asl belgisi” MAT) joriy qilinganligi hamda “CRPT TURON” MChJ mazkur tizimning operatori (keyingi o‘rinlarda — operator) sifatida belgilanganligi;